

RIVOJLANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASINING O'SISHI***Mutalibjonova Ruxshona Ozodbek qizi****Andijon davlat chet tillari instituti talabasi**E-mail:mutalibjonovaruhsiona@.com**Tel:+998976664050*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida ta'lism sohasining o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ushbu mavzu ostidagi maqolada mamlakatda ta'lism tizimini isloh qilish, zamonaviy standartlarga moslashtirish va malakali kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ta'lism sohasidagi yutuqlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, kelajak, pedagog, sa'y-harakatlar, davlat, mutaxassis, dastur, sifat, kadr, bandlik, imtiyoz, komputerlashtirish, sharoit.

Annotation: In this article analyzed the role and importance of education in the process of Uzbekistan's economic and social development. This topic examines the reforms being implemented in the education system, its adaptation to modern standards and efforts to train qualified specialists. Additionally, it discusses the achievements in the education sector, exciting challenges and ways to address them.

Key words: youth, future, pedagogue, attempts, government, experts, program, quality, personnel, employment, liberty, computerization, surroundings.

Аннотация: В данной статье анализирует роль и значение образования в процессе экономического и социального развития Узбекистана. В статье рассматриваются реформы в системе образования, адаптация к современным стандартам и усилия по подготовке квалифицированных специалистов. Также обсуждаются достижения в сфере образования, существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: молодые люди, будущее, педагог, усилие, занятость, государство, специалист, программа, качество, персонал, привилегия, компьютеризация, условные.

Hozirgi globallashuv zamonida rivojlanayotgan davlatlar qatoridan o'rinn olish uchun mamlakatda ta'lism sohasini rivojlantirish asosiy masala bo'lib kelmoqda. Mamlakat taraqqiyoti uchun ta'lism sohasini rivojlantirish bevosita asosiy o'rinni egallaydi. Nafaqat vatan taraqqiyoti uchun balki shaxs hayoti uchun ham muhim ro'l o'ynaydi. Chunki inson bilimli bo'lib ulg'ayar ekan, hayoti davomida qiyinchiliklarga uchramaydi balki, ularni oson usullar bilan hal qila oladi. Hozirda O'zbekiston respublikasida ta'lism sohasini rivojlantirish uchun ko'p chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

Negaki, jahon standartlariga javob bera olish uchun yoshlarni bilimli qilib tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lismizidagi so'nggi o'zgarishlar ta'lismiz sifatini oshirish, o'qituvchilarni qo'llab – quvvatlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.O'zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lismiz olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. O'zbekistonda mакtabda o'qish majburiy hisoblanadi. Ta'lismiz tizimi yagona va uzlusiz bo'lib, ta'lismiz turlariga ko'ra quyidagilardan iborat:

- Maktabgacha ta'lismiz va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lismiz;
- professional ta'lismiz;
- oliy ta'lismiz
- oliy ta'lismidan keyingi ta'lismiz;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lismiz.

Maktabgacha ta'lismiz va tarbiyani tashkil etish tartibi " Ta'lismiz to'g'risida" gi Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lismiz va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi. Maktabgacha ta'lismiz va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lismiz turidir. Maktabgacha ta'lismiz va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'lismiz sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida ta'kidlaganidek," Yangi O'zbekiston mакtab ostonasidan boshlanadi". Mакtab ta'lismizi rivojlantirish uchun qator choralar, takliflar ko'rib chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Masalan, so'nggi 4 yil ichida mакtab o'qituvchilarining oylik maoshi 1,5 barobarga oshirildi. Davlat mukofotlari bilan taqdirlanayotgan ustozlar soni oshib borishi, o'qituvchi tayyorlashdagi byurokratik to'siqlar kamayganligi ta'lismiz sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. "Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini oshirish yili" da davlat dasturida 30 ta yangi mакtab qurish 320 ta mакtabni qayta ta'mirlash va moddiy – texnik bazani rivojlantirish maqsadida 2 trillion so'm pul ajratilgan va shu yilni o'zida barcha islohotlar amalga oshirilgan. Sohada yagona " elektron ta'lismiz " tizimini joriy etishga esa 250 milliard so'm ajratildi. Boshqa olis tumanlarga, qishloqlarga borib dars berayotgan o'qituvchilarga 50 % boshqa viloyatlarga borib ishlasa 100% ustama haq to'lash kabi islohotlar amalga oshirilgan. Chet tilini o'qituvchi ustozlar Xalqaro yoki Milliy sertifikatlarni qo'lga kiritsa, oylik maoshlariga qo'shimcha ustama haq olishlari mumkin edi endilikda esa barcha fan o'qituvchilari o'z fanlari bo'yicha Milliy

sertifikatlarni olishsa ularga ham 50 % lik ustama haq olishadi. Muhraram prezidentimiz ta'kidlaganidek “ Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa,yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechishga imkoniyat tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki butun xalqimiz bu fikrni qo'llab – quvvatlaydi”.

Oliy ta'lif bakalavriat ta'lif yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi.Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lif tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiyl o'rta (o'n bir yillik ta'lif), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lif), boshlang'ich professional ta'lif (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lif) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiyl o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lif ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Oliy ta'lif muassasalari, shu jumladan xorijiy va xususiy universitetlar sonining ortishi, oliy ta'lif olish uchun davlat kvotalari ko'payishi, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarning qizlari va o'rta ta'lif muassasalarining jismoniy imkoniyatlari cheklangan bitiruvchilari uchun alohida kvotalar ajratilishi yoshlarni oliy ta'lif bilan qamrab olish darajasining oshishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda.Insonning imkoniyatlari ko'p jihatdan uning ta'lif darajasiga bog'liq. Jamiyatda intellektual salohiyati yuqori bo'lgan insonlar ulushining ortishi iqtisodiyotda raqobatbardoshlik va mehnat unumdarligini oshirish, kelajak avlod daromadlarining kamayishi xavfini qisqartirish imkonini beradi.Yutuqlar bor, lekin muammolardan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Mamlakatda to'plangan inson kapitali O'zbekistonning bugungi imkoniyatlari va salohiyatini aks ettiradi. Inson rivojlanishi indeksi hisobotida ta'lif olishning o'rtacha davomiyligi 11,9 yilni tashkil qiladi.Biroq Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, bugun ushbu mamlakatda dunyoga kelgan go'dakning mehnat unumdarligi u voyaga yetganda 62 foizini tashkil qiladi. Unumdarlik esa to'liq ta'lif olish va yaxshi salomatlik bilan ta'minlanadi.Shunday ekan, ta'lif darajasini oshirish insonning rivojlanishini rag'batlantirishda juda katta imkoniyatlarga ega.

Mamlakatda 2030-yilgacha ta'lif sohasidagi asosiy e'tibor qator muammolarni inobatga olgan holda quyidagi jihatlarga qaratilishi maqsadga muvofiq: Model tugallangan ssenariy bilan bir vaqtda baholash imkonini beradi. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning barqaror rivojlanish maqsadlari ko'rsatkichlariga ta'siri shuni ko'rsatadiki, 2030-yilgacha ta'lif darajasini oshirishda (boshlang'ichdan oliy ta'limgacha) sezilarli ijobjiy o'zgarishlarga erishiladi va O'zbekiston daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan mamlakatlar darajasiga yetadi.

Natijada, oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha belgilangan ko‘rsatkichlarni 50—60 foizga oshirish ta’lim olish davomiyligini 8,2 yilgacha (UNICEF 15+) ko‘paytiradi va umumiy bilimlar tizimi indeksining 1,5 baravar, innovatsiyalar indeksining esa 2 baravar oshishiga olib keladi. Hozirgi vaqtida munosib iqtisodiy darajaga erishish va aholi turmush sifatini oshirish texnik va texnologik imkoniyatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda innovatsion jarayonlarni kuchaytirish, shuningdek, ta’lim tizimini yuqori darajaga ko‘tarishni taqozo etmoqda. Ta’lim sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar inson kapitali va oldingi avlodlarning hayot sifatini oshirish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. S. I.Turobjonov. yuz.uz sayti Maqola
2. Qodirov.A, Saidov. B “O’bekiston Respublikasi ta’lim tizimi: tarixi va rivojlanishi”
3. Ta’lim to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
4. “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni
5. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-apreldagi 241-son qarori“. *lex.uz*. Qaraldi: 2021-yil 18-noyabr.
6. “TEAM University Legal Framework“. *teamuni.uz*. 2021-yil 3-martda asl nusxadan arxivlangan Qaraldi: 2021-yil 18-noyabr.

